

O'ZBEKISTONDA KECHIKTIRILGAN SOLIQ MAJBURIYATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Obidxonov Xumoyun Xamidxon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Moliyaviy tahlil" kafedrası assistenti

E-mail: xumoy4@gmail.com

ORCID: 0009-0008-8498-1243

ISSUES OF IMPROVING THE ACCOUNTING METHODOLOGY FOR DEFERRED TAX LIABILITIES IN UZBEKISTAN

Obidkhonov Khumoyun Khamidkhon ugli

Assistant of the "Financial Analysis"

Department at Tashkent State

University of Economics

E-mail: xumoy4@gmail.com

ORCID: 0009-0008-8498-1243

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq majburiyatlarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi uslubiyoti ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Soliq majburiyatlarining huquqiy va iqtisodiy mazmuni o'rtasidagi tafovutlar ochib berilgan hamda milliy buxgalteriya hisobi standartlari bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o'rtasidagi farqlar qiyosiy o'rganilgan. Xususan, kechiktirilgan soliq majburiyatlarini aniqlash, baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirish mexanizmi MHXS 12 "Foyda soliqlari" (IAS 12 Income Taxes) talablari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida milliy standartlarda soliq majburiyatlariga oid terminologik noaniqliklar va metodologik cheklovlar mavjudligi aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Abstract. This article presents a scientific investigation of the methodology for reflecting tax liabilities in accounting practices in the Republic of Uzbekistan. The study reveals the differences between the legal and economic content of tax obligations

and comparatively examines the disparities between national accounting standards and international financial reporting standards. Specifically, the mechanism for identifying, evaluating, and reporting deferred tax liabilities in financial statements is analyzed based on the requirements of IAS 12 "Income Taxes." The research findings indicate the presence of terminological ambiguities and methodological limitations related to tax obligations in national standards. Consequently, scientific and practical recommendations have been developed to address these issues.

Kalit so'zlar. soliq majburiyati, joriy soliq majburiyati, kechiktirilgan soliq majburiyati, vaqtinchalik farqlar, soliq bazasi, balans yondashuvi, moliyaviy majburiyatlar, BHMS, MHXS.

Keywords: tax liability, current tax liability, deferred tax liability, temporary differences, tax base, balance sheet approach, financial obligations, National Accounting Standards, IFRS.

Kirish.

Tashkilot majburiyatlarining eng muhim turlaridan biri soliqlarni to'lash bilan bog'liq majburiyatlardir. Soliq majburiyatlari davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi ommaviy-huquqiy munosabatlarni ifodalaydi hamda iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida soliq majburiyatlarining huquqiy asoslari Soliq kodeksi bilan belgilanadi. Biroq ularning buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishi milliy buxgalteriya hisobi standartlari bilan tartibga solinadi. Amaldagi me'yoriy-huquqiy bazada "soliq majburiyatlari" atamasining yagona iqtisodiy ta'rifi mavjud emasligi buxgalteriya hisobida terminologik va metodologik muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish uslubiyotini tahlil qilish hamda uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya.

Tadqiqot uslubiyotining asosini tizimli va qiyosiy tahliliy yondashuvlar, shuningdek, normativ

hujjatlar tahlili, ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Muhokama va tahlil

Soliq majburiyatlarining huquqiy va iqtisodiy mazmuni.

Soliq majburiyati davlatning soliq undirish bo'yicha ajralmas huquqiga asoslanadi va bir tomonlama xususiyatga ega. Soliq to'lovchi davlat oldida faol harakatlarni amalga oshirish majburiyatini oladi, davlat esa qarshi majburiyat olmaydi.

Buxgalteriya nuqtai nazaridan esa majburiyat — bu tashkilotning iqtisodiy foyda keltiruvchi resurslarining chiqib ketishiga olib keladigan qarzidir. Shu sababli soliq majburiyatlari huquqiy mazmuniga ko'ra ommaviy-huquqiy, iqtisodiy mazmuniga ko'ra esa moliyaviy majburiyat hisoblanadi.

Milliy buxgalteriya standartlarida "soliq majburiyatlari" tushunchasi o'rniga "byudjet oldidagi qarz" yoki "kreditorlik qarzi" atamalari qo'llaniladi. Bu esa obyektning iqtisodiy mohiyatini to'liq aks ettirmaydi.

Quyidagi jadvalda soliq majburiyatlarining klassik majburiyat turlari bilan huquqiy nuqtai nazardan qiyosiy tavsifini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Soliq majburiyatlarining klassik majburiyat turlari (kreditorlik qarzlari) bilan huquqiy nuqtai nazardan qiyosiy tavsifi

№	Mezonlar	Majburiyatlarning an'anaviy turlari	Soliq majburiyatlar
1.	Yuzaga kelish sohasi	Fuqarolik-huquqiy munosabatlar	Ommaviy-huquqiy munosabatlar
2.	Majburiyatli munosabatlar ishtirokchilari	Qarzdor va kreditor	Davlat va soliq to'lovchi, ayrim hollarda uchinchi shaxslar - soliq agentlari
3.	Majburiyatning vujudga kelish asosi	Shartnoma yoki huquqbuzarlik	Davlatning soliq undirish bo'yicha ajralmas huquqi
4.	Munosabatlar xususiyati	Ixtiyoriy (ikki tomonlama)	Majburiy (bir tomonlama)

5.	Majburiyatlar shakli	Mulkiy (yoki pul ko'rinishida)	Faqat pul ko'rinishida
6.	Majburiyatning muddati	Muddatli va muddatsiz	Muddatli
7.	Majburiyatning yuzaga kelish davriga ko'ra	Davriy yuzaga keladigan yoki doimiy majburiyatlar	Vaqt-vaqti bilan paydo bo'ladigan majburiyatlar

Ushbu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, soliq majburiyatlari o'zining huquqiy tabiati va iqtisodiy mazmuniga ko'ra an'anaviy fuqarolik-huquqiy majburiyatlardan tubdan farq qiladi.

Birinchidan, soliq majburiyatlari ommaviy-huquqiy xarakterga ega bo'lib, ular davlatning fiskal vakolati asosida bir tomonlama tartibda vujudga keladi. An'anaviy majburiyatlar esa teng huquqli subyektlar o'rtasidagi shartnomaviy yoki delikt munosabatlariga asoslanadi.

Ikkinchidan, soliq majburiyatlarida davlat ustuvor subyekt sifatida qatnashadi va munosabatlar imperativ xususiyat kasb etadi. Bu esa ularni ixtiyoriy fuqarolik majburiyatlaridan ajratib turadi.

Uchinchidan, soliq majburiyatlari faqat pul shaklida ifodalanadi, qat'iy belgilangan muddatga ega hamda soliq davri yoki soliq bazasi yuzaga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Shu bois, soliq majburiyatlarini oddiy kreditorlik qarzi sifatida talqin qilish ularning huquqiy mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Ular alohida iqtisodiy-huquqiy kategoriya sifatida ko'rib chiqilishi va buxgalteriya hisobida mustaqil obyekt sifatida metodologik jihatdan aniq tartibga solinishi maqsadga muvofiqdir.

Milliy standartlarda soliq majburiyatlarini hisobga olish muammolari.

Amaldagi 1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"da majburiyatlarning aniq turlari keltirilmagan. Balansda soliqlar va yig'imlar bo'yicha

qarzdorlik "kreditorlik qarzi" tarkibida ko'rsatiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda esa "foyda solig'i va boshqa majburiy to'lovlar" atamasi qo'llaniladi. Bu atama foyda solig'i bo'yicha xarajatni yoki majburiyatni aniq ajratmaydi.

Shuningdek, milliy tizimda joriy va kechiktirilgan soliq majburiyatlari o'rtasida aniq farqlash mexanizmi mavjud emas.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari: milliy va xalqaro standartlardagi yondashuv.

Kechiktirilgan soliq majburiyati buxgalteriya foydasi bilan soliq foydasi o'rtasida yuzaga keladigan vaqtinchalik farqlar natijasida kelgusida to'lanishi kutilayotgan soliq summasini anglatadi.

Xalqaro amaliyotda foyda solig'i hisobi MHXS (IAS) 12 "Foyda solig'i" standarti bilan tartibga solinadi. Mazkur standart balans yondashuviga asoslanib, aktiv va majburiyatlarning balans qiymati hamda soliq bazasi o'rtasidagi vaqtinchalik farqlarni aniqlashni talab qiladi.

Milliy tizimda esa 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"da vaqtinchalik farqlarni buxgalteriya va soliq foydasi o'rtasidagi tafovut sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv "daromad-xarajat" usuliga asoslangan bo'lib, balans yondashuviga nisbatan torroq doiraga ega.

Natijada quyidagi farqlar yuzaga keladi:

- asosiy vositalarni qayta baholash;
- biznesni birlashtirish;
- xorijiy sho'ba korxonalar investitsiyalari;

• davlat subsidiyalari va xakozolar.
Ushbu holatlarda MHXS bo'yicha kechiktirilgan soliq majburiyati shakllanadi, milliy tizimda esa tan olinmaydi.

2-jadval

Milliy qonunchilik va 12-sonli BHXS (IAS)da kechiktirilgan soliq majburiyatlari hisobining qiyosiy tahlili

Qiyosiy mezonlar	Kechiktirilgan soliq majburiyatlarini hisobga olishdagi o'xshashliklar	Kechiktirilgan soliq majburiyatlarini hisobga olishdagi farqlar
Soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlarni aniqlashga yondashuv	21-sonli BHMS da soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi vaziyatlarning bir qismi 12-sonli BHXS (IAS)da belgilangan holatlar bilan mos keladi	12-sonli BHXS (IAS)da soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlarni shakllantirishga olib keladigan, ammo milliy qonunchilikda bunday natijaga olib kelmaydigan vaziyatlar mavjud
Kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini o'zaro hisobga olish	Qo'llaniladi, lekin turli darajada majburiylik xususiyatiga ega	12-sonli BHXS (IAS)da - majburiy o'zaro hisobga olishning majburiy shakli, Soliq kodeksida majburiy deb belgilanmagan.
Hisobda va hisobotda aks ettirilishi	O'xshashlik yo'q	Daromadlar va xarajatlar yoki xususiy kapital sifatida hisobga olish 12-sonli MHXS (IAS) bo'yicha va Soliq kodeksida bunday chegaralanishning yo'qligi

Milliy qonunchilik hamda BHXS (IAS) 12 "Foyda solig'i" talablari asosida kechiktirilgan soliq majburiyatlari hisobini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mavjud o'xshashliklarga qaramay, metodologik yondashuvlarda sezilarli farqlar mavjud.

Birinchidan, vaqtinchalik farqlarni aniqlash masalasida milliy 21-son BHMS ayrim holatlarda MHXS (IAS) 12 bilan mos kelsa-da, xalqaro standart balans yondashuviga asoslanib, kengroq doiradagi soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlarni qamrab oladi. Milliy tizim esa ayrim operatsiyalar bo'yicha kechiktirilgan soliq majburiyatini tan olmaydi.

Ikkinchidan, kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini o'zaro hisobga olish xalqaro standartda majburiy tartibda qo'llaniladi, milliy qonunchilikda esa bu majburiy norma sifatida belgilanmagan.

Uchinchidan, hisobotda aks ettirish masalasida ham sezilarli tafovut mavjud bo'lib, BHXS (IAS)12 ga ko'ra kechiktirilgan soliq summaları daromadlar va xarajatlar yoki bevosita xususiy kapital tarkibida aks ettiriladi, milliy tizimda esa bunday aniq chegaralanish mavjud emas.

Umuman olganda, xalqaro standartlar tizimi kechiktirilgan soliq majburiyatlarini tan olish va aks ettirishda tizimli, balansga yo'naltirilgan va iqtisodiy mazmun ustuvorligini ta'minlaydi. Milliy amaliyot esa

ko'proq soliq-huquqiy yondashuvga asoslangan. Shu bois, milliy hisob tizimini MHXS (IAS) 12 talablariga yaqinlashtirish moliyaviy hisobotning shaffofligi va taqqoslanish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlarini baholash masalalari.

BHXS (IAS) 12 ga muvofiq, kechiktirilgan soliq majburiyatlari aktiv realizatsiya qilinishi yoki majburiyat so'ndirilishi kutilayotgan davrdagi soliq stavkasi bo'yicha baholanadi.

Milliy tizimda esa soliq stavkasi o'zgarishi e'lon qilinganda qayta baholash mexanizmi aniq belgilanmagan.

Shuningdek, xalqaro standartlarda kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini o'zaro hisobga olish majburiy hisoblanadi (tegishli shartlar bajarilganda). Milliy qonunchilikda esa bunday majburiylik yoritilmagan.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalariga asosan quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Normativ hujjatlarda terminologiyani aniqlashtirish "Soliq majburiyatlari" atamasini BHMSda rasmiy joriy etish va yagona iqtisodiy ta'rif berish.

2. Joriy va kechiktirilgan soliq majburiyatlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish:

Joriy soliq majburiyati — hisobot davri uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliq.

Kechiktirilgan soliq majburiyati — kelgusida to'lanishi kutilayotgan soliq.

3. Balans yondashuvini joriy etish. Kechiktirilgan soliq majburiyatlarini aktiv va majburiyatlarning balans qiymati hamda soliq bazasi o'rtasidagi farq asosida aniqlash.

4. O'zaro hisobga olishni majburiy qilish. Kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini saldolashgan holda aks ettirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tizimi xalqaro standartlarga nisbatan metodologik jihatdan cheklangan bo'lib, asosiy muammolar terminologik noaniqlik, balans yondashuvining qo'llanilmasligi hamda moliyaviy majburiyatlar konsepsiyasining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlarini mustaqil buxgalteriya obyekti sifatida normativ mustahkamlash hamda IAS 12 talablariga moslashtirish milliy moliyaviy hisobotning ishonchliligi va shaffofligini oshiradi.

Taklif etilgan o'zgarishlar milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi va investorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar uchun axborot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent. 2020 yil 30 dekabr (keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, № 404-son 2016 yil 13 aprel. <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 06.08.2024 yilda ro'yxatidan o'tgan, №3544 ro'yxatga olingan 1-son BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati". - <https://lex.uz/uz/docs/-7050497>

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 27.12.2024 yilda ro'yxatidan o'tgan, №3593 ro'yxatga olingan 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". <https://lex.uz/ru/docs/-7282737>

5. International Accounting Standards Board. IAS 12 Income Taxes. – London: IFRS Foundation.

6. Ergashev Sh.Q. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 320 b.

7. Qodirov A.R. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisob yuritish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021. – 256 b.